



QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY NORMALARINI AMALGA OSHIRISH

Utegenov Quanishbay Djadigerovich

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti i.f.f.d
(PhD)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10016040>

ARTICLE INFO

Received: 10th Oktober 2023

Accepted: 17th Oktober 2023

Online: 18th Oktober 2023

KEY WORDS

Davlat-xususiy sheriklik,
innovatsiya sohasi, innovatsiya
strategiyasi, davlat-xususiy
shiriklik mexanizmi,
innovatsiya faoliyatini davlat
tomonidan qóllab-quvvatlash.

ABSTRACT

Maqolada innovatsiyalar sohasidagi davlat-xususiy sheriklikning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Asosiy etibor DXSH doirasida innovatsiya faoliyatini qóllab-quvvatlash, davlat va biznes órtasidagi munosabatlar va ózaro aloqalarni yaxshilash hamda innovatsiya sohasidagi hamkorlikni oshirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda aynan qishloq xo'jaligini qó'llab-quvvatlash va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yuqoriligini ta'minlash uchun DXSH mexanizmini tartibga solish bo'yicha amalda qó'llanilayotgan chora-tadbirlari to'g'risida aytib o'tish kerak.

Endi, qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi to'siq bo'lib turgan mavjud qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish muammosiga keladigan bo'lsak, uni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kooperativlari (QXMSK)ni tashkil etish orqali hal etish mumkin. Bunday tuzilmani tashkil etish aholini nafaqat yangi, sifatli mahsulotlarni adolatli narxlarda to'xtovsiz ta'minlash, balki mamlakat qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasida raqobatbardoshlikni vujudga keltiradi, undan tashqari saqlash, sifatini tekshirish, realizatsiya va mahsulotlarni tashish kabi qator xizmatlar turlarini taklif etishi mumkin.

Buning uchun mamlakatimiz ASMning texnikaviy, moliyaviy va huquqiy jihatdan to'liq ta'minlanish lozim. SHundagina yangi shakllantirilgan QXMSK samarali faoliyat ko'rsata oladi va o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erisha oladi. Uning vazifalaridan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash sharoitlarini yaratish hisobiga mahsulotlar tovarlilik darajasini oshirishdir. Birinchi navbatda loyihalarni amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligi sohasidagi hududlarni (viloyatlarni), u erda samarali faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklarni tanlab olish rejalashtiriladi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish tizimi davlat kapitali emas, balki xususiy kapital asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Davlat xususiy sektor uchun maqsadlarni, vazifalarni va faoliyat standartlarni o'rnatadi. Ushbu tuzilmaning muhim jihati shuki, u mayda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga aniq ko'mak ko'rsatadi va ular uchun ichki bozorda mahsulotini realizatsiya qilish imkonlarini beradi. DXSH asosidagi yangi tuzilma faoliyati oziq-ovqat xavfsizligini ikki yo'nalish bo'yicha



amalga oshiradi: mahsulotlarni to'g'ri taqsimash va to'g'ri saqlash orqali sifatini oshirish; mahsulotlarni maqbulligini oshirish.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarni to'g'ri taqsimlash, to'g'ri saqlash va maqbulligini oshirish jarayonlari murakkab jarayonlardir, shubhasiz bunday ko'lamdagi tadbirlarni amalga oshirish uchun faqatgina byudjet mablag'lari o'zi etarli bo'lmaydi. SHuning uchun, DXSH mexanizmidan foydalanish zarur bo'ladi, uning samarali misoli bo'lib respublikamiz hududlarida vujudga kelayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashgan klasterlarni misol qilib olishimiz mumkin. Alohida ta'kidlash kerakki, DXSH mexanizmini bizning fikrimizcha, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini samarali faoliyatini olib borish uchun ijtimoiy soha va qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi strategik nuqtai nazardan muhim hududlar uchun loyihalarni, ularni maqsadlari, amalga oshirish muddatlari, resurslari va aynan shu loyihalarni sifatli amalga oshira oladigan xususiy tadbirkorlarni aniqlab olish zarurdir. Asosiy urg'uni yangi ish joylarini yaratish imkonini beradigan innovatsion ishlab chiqarish va ilg'or texnologiyalarni joriy qilishga qaratish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi usul – bir nechta fermer xo'jaliklari shakllantiriladi, ularni shakllantirish uchun byudjetdan 20-25% mablag' ajratiladi, qolgan qismi esa qarzar yordamida qoplanadi. Bu usulda biznes yuqori darajadagi qoplanish bilan amalga oshib, davlat o'ziga riskning aksariyat qismini oladi.

Barcha loyihalarni amalga oshirgandan so'ng, yagona sanoat kompleksi shakllanadi, boshqacha aytganda, biznes vakillari davlat tomonidan yoki boshqa usulda byudjet xarajatlari qoplangan loyihalarni sotib ola boshlaydi.

Mavjud riskni kamaytirish uchun, bizning fikrimizcha, mamlakat miqyosda qishloq xo'jalik salohiyati yuqori bo'lgan bir nechta hududlar tanlab olish va shu hududlarda, kelajakda nafaqat jahon ishlab chiqaruvchilari bilan narxi va sifat bo'yicha raqobatlasha oladigan, ishlab chiqarishni ta'minlay oladigan, balki chet elda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan sifati va maqbulligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqara va qayta ishla oladigan ASMda DXSH uchun qulay normativ-huquqiy baza shakllantirish maqsadga muvofiq.

Aynan davlat va biznes vakillarining kiritadigan sarmoyalari orqali import o'rnini bosish(muqobillik)ni ta'minlash uchun mavjud ichki resurslarni jadallashtirish va aholini maqbul, sifatli mahsulot xajmi bilan ta'minlash muammolarini muvafaqiyatli hal etish mumkin. Ushbu jarayonlarni etarli darajada qisqa va kam harajatlar bilan davlat va xususiy sektorni uyg'unlashuvi natijasida amalga oshirish mumkin.

SHunday qilib, qishloq xo'jaligidagi DXSH loyihalari natijalari, mamlakat aholisining hayot darajasi sifatini keskin oshirish imkonini beradi. Ushbu mexanizm yordamida mamlakatimiz iqtisodiyoti va ASM boshqa mamlakatlar xukumatlarining qaroridan qat'iy nazar, iste'mol normalariga muvofiq mamlakat aholisi umumiy iste'mol talabini qondirish va shu orqali millatning salomatligini va yuqori sifatli hayot darajasini ta'minlashi mumkin deb hisoblaymiz. Bularning barchasi pirovardida, globalizatsiya va xalqaro ahvoning keskinligi sharoitida mamlakat milliy xavfsizligini saqlab qolish uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligini huquqiy tartibga solish holati va darajasi modernizatsiyalash jarayonlaridan ortda qolmoqda. Qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik faoliyatini kompleks



huquqiy tartibga solishga erishilmasdan tarkibiy, shartnomaviy, davlat-xususiy biznes sheriklikni, agroinnovatsion faoliyatni huquqiy ta'minlash, qolaversa ular ishtirokida fuqarolik muomalasining barqarorligini amalda ro'yobga chiqarish murakkab masaladir.

SHeriklikni amalga oshirish uchun asos hisoblangan me'yorlar va huquqiy tartib qoidalar huquqning turli tarmoqlarida bo'lishi to'g'risida huquqiy adabiyotlarda bir necha bor ta'kidlab o'tilgan. Ularni qo'llash davrida (shariklikni amalga oshirish jarayonida) ular xuddi o'zaro "kesishadi". SHeriklikning turli bosqichlarda huquqning bitta tarmog'idagi normalardan foydalanish mumkin, tugallash bosqichida esa boshqalaridan va hakoza. SHeriklikni amalga oshirishda aynan qaysi normani asos qilib olish zarurligi shariklikning u yoki bu turi amalga oshirilishi rejalashtirilgan sohani aniqlash davrida hal etiladi.

SHartli belgilangan, lekin ko'pchilik olimlar tomonidan aniqlangan qonunchilikni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ma'lum: *bajarish, qo'llash, rioya etish, foydalanish*. Davlat-xususiy sharikchiligini amalga oshirishda hammasidan ko'proq qonunchilikni qo'llash va rioya etishdan, kamdan kam hollarda – bajarish va foydalanishdan foydalaniladi"

Qo'llash davlat-xususiy sharikchiligi to'g'risidagi normalarni amalga oshirish shakli sifatida moddiy va protsessual normalar talablariga asoslangan individual yuridik hujjatlarni nashr etishda foydalaniladi.

Bunday hujjatlar shariklikning boshqaruv organi rahbarini tayinlashda, shariklik ishtirokchilari ular o'rtasida vujudga keladigan suddan tashqari nizolarni qarab chiqishga vakolatli shaxslarni tanlashda, "shariklik xulq-atvori" siyosatini (strategiyasini, taktikasini) aniqlashda, shariklik ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan konkret nizo (kelishmovchilik, tushunmovchilik va boshqalar) bo'yicha qaror qabul qilishda va hakoza chiqarilishi mumkin.

Boshqacha aytganda, qo'llash davlat-xususiy sharikchiligi to'g'risidagi normalarni amalga oshirish shakli sifatida shariklik rahbarlik organi kompetensiyasi doirasida yoki ularning shariklik ishtirokchilarining har birining kompetensiyasidan kelib chiqib qabul qilingan konkret masalalar bo'yicha rasmiy qaror qabul qilish shakli sifatida foydalaniladi.

Rioya etish huquq normasi – bu qonunchilikni amalga oshirishning huquq tartibotga va intizomga olib keluvchi asosiy shaklidir. Davlat-xususiy sharikchiligini amalga oshirishda aynan amalga oshirishning bu shakli ko'zlangan rejalarga olib kelishi mumkin".

Huquq normalariga aniq va so'zsiz rioya etish boshqaruv sub'ektlariga (davlat va nodavlat) huquq man qilgan hatti-harakatlarni qilishdan o'zini tiyishni "nazarda tutadi". Bunday ko'rsatmani bajarmaslik jazolanishi mumkin, ya'ni huquq normalariga rioya etish qonunda nazarda tutilgan va jamiyat va davlat manfaatlarini, fuqarolar va tashkilotlar huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida majburiyatlarni buzganligi uchun majburlash choralarini qo'llash imkoniyati bilan ta'minlanadi".

Davlat-xususiy sharikchiligini amalga oshirishda talablarni bajarmaganlik uchun sanksiyalarni o'z ichiga olgan normalar kam emas. Ularga fuqarolik, mehnat, jinoiy va ma'muriy qonunchilikni kiritish mumkin.

SHartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik sababli ko'rilgan zararlarni qoplash; mol-mulkka, sog'liqqa yoki jabrlanuvchi (shariklik ishtirokchisi yoki boshqa shaxs) hayotiga etkazilgan ziyonni qoplash; mulkdor yoki mol-mulkning qonuniy egasi tomonidan



begonalashtirish noqonuniy egalik qilishdan talab etish fuqarolik huquqida sanksiyaga misollar hisoblanadi va hokozolar.

Mehnat huquqida mehnat to'g'risidagi qonunchilikni (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 34-moddasi) buzganlik uchun javobgarlik choralari (jinoiy javobgarlikkacha) normalar sanksiyasi hisoblanadi.

SHeriklikni amalga oshirishda lavozimidan ozod etish, davlat (mahalliy hokimiyat) xizmatini to'xtatish va boshqalar ma'muriy huquqda tipik sanksiya bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyot sohasida jinoyat qilganlik, korrupsion jinoyatlar, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 167, 168- va boshqa ayrim moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jazo choralari jinoiy huquq normalari sanksiyalari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kompleks tarmoqlarda (er, tabiatni muhofaza qilish, transport va boshqalar) majburlash (javobgarlik) choralari fuqarolik-huquqiy (ziyonni qoplash, tabiiy ob'ektlarga ziyon etkazish va boshqalar), ma'muriy jazolash (shtraflar, huquqdan mahrum etish va faoliyatini to'xtatish va boshqalar), O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy-huquqiy jazolash bilan birga qo'shiladi (163-modda. Davlat sirini oshkor qilish).

Foydalanish huquq normalarini amalga oshirish shakli sifatida huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'z ixtiyoriga ko'ra unga tegishli huquqlarni amalga oshirilgan hollarda qo'llanilib boshlaydi (huquqdan foydalanish – bu normalarda qonuniy huquqqa egalikda ifodalangan faqat sub'ektiv huquq va erkinliklarni amalga oshirish jarayonidir).

Davlat-xususiy sherikchiligini amalga oshirishda huquq normalaridan foydalanish sheriklikni tashkil etish boshlanishida ham, sheriklik ishtirokchilari hamkorlikda faoliyatni amalga oshirish jarayonida ham, shuningdek, qaror sheriklikning bitta ishtirokchisi tomonidan, o'zining manfaatlaridan, maqsadlaridan yoki vazifalaridan kelib chiqib mustaqil qabul qilinishi lozim bo'lgan hollarda yuz beradi.

Masalan, davlat boshqaruv sub'ekti bilan o'zaro munosabatga kirishishi yoki kirishmasligi to'g'risidagi qarorni har bir nodavlat boshqaruv sub'ekti har biri tomonidan o'z manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib mustaqil qabul qilish huquqiga ega. SHeriklikning tarkibidan chiqish to'g'risidagi qaror ham har bir ishtirokchi tomonidan (agar bu qonun bilan taqiqlangan bo'lmasa) mustaqil qabul qiladi.

Foydalanish huquqni amalga oshirishning bevosita shakli sifatida – bu turli xil huquqiy imkoniyatlarni (ruxsatlarni) biriktirgan yuridik normalarni, shu jumladan sub'ektiv huquqlarni, yuridik erkinliklarni, qonuniy manfaatlarini, huquq qobiliyatini amalga oshirish jarayonidir. SHu munosabati bilan huquqdan foydalanish sheriklik jarayonida va davlat sub'ektlari va nodavlat boshqaruv sub'ektlari, agar ular huquqiy normalarni amalga oshirish manzili hisoblansa ular tomonidan amalga oshiriladi.

SHeriklik ishtirokchilarining ma'lum harakatlarni bajarish (qaror qabul qilish) huquqidan foydalanish bilan bog'liq faoliyati hukmiy, qat'iy talab, boshqaruv xarakteriga ega emas ekanligi sababli huquqdan foydalanish zarur bo'lgan xulq-atvor emas, ijozat tarzda namoyon bo'ladi.

Huquq normalaridan foydalanish qat'iy belgilangan, doirasida davlat boshqaruv sub'ektlarining huquqni qo'llash faoliyati kechadigan protsessual shaklga ega emas. SHuning uchun bu sheriklik ishtirokchilarining ongli, tashabbusli xulq-atvorlari choralari sifatida aniqlanadigan huquqiy faollikni ifoda etishning shaklidir. Ammo huquq normalaridan



foydalanish barcha qonuniy faoliyatlar kabi haqqoniy xarakterga ega. SHu bilan bir qatorda huquqdan foydalanish faollik ko'rsatish sifatida konkret huquqiy ko'rsatmalarning odatiy talablaridan "ustun chiqadi", chunki huquqiy imkoniyatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan xulq-atvor juda tashabbuskor, ko'zlangan maqsadlarga erishishdan yuqori darajada manfaatdorligi va natija sifatida eng natijadorligi bilan bog'langan.

Aynan shuning uchun davlat-xususiy sherikchiligi sharoitlarida g'oyalarni amalga oshirishda huquq normalaridan foydalanish yangi ijtimoiy ne'matlarni sotib olishning (shariklikni amalga oshiradiganlar uchun ham, sheriklik faoliyati ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirganlar uchun ham) asosiy usuli hisoblanadi.

Davlat-xususiy sherikchiligini amalga oshirishda huquq normalarini *bajarish* davlat boshqaruv sub'ektlari uchun xarakterlidir, ayrim hollarda normalarni amalga oshirishning ushbu shaklidan nodavlat boshqaruv sub'ektlari foydalanadi.

Huquq normasini bajarish – bu ularda mavjud bo'lgan yuridik ko'rsatmalar, taqiqlar va ruxsat berish kabilarga aniq amal qilishni talab etishdir. Ammo huquqiy normalarni amalga oshirishning ushbu varianti boshqaruvning (davlat va nodavlat) barcha sub'ektlari uchun umumiy hisoblanishi lozim, chunki, ulardan har biri boshqaruvga oid huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin (Утегенов, 2020, 21 май).

Garchi davlat boshqaruvi sub'ektlari uchun huquq normalarini bajarish ular faoliyatining asosiy turi va huquqiy asosi hisoblanadi, ammo nodavlat boshqaruvi sub'ektlari har doim buni hisobga olmaydi va natijada qator muammolarga duch keladi.

"Ommaviy hokimiyat organi aynan ko'rsatmalarni bajarishda harakat qilishga, qaror qabul qilishga yoki aksincha, qaror qabul qilmaslikka, harakat qilmaslikka majbur va hakoza. Buning bilan lozim bo'lgan huquq qoidalari ta'minlanadi va ijroiya hokimiyat tizimida davlat intizomiga erishiladi. Tadbirkor o'z qarorlarini qabul qilishda, harakatida yoki harakatsizligida ancha erkin, agar harakat qilish (harakatsizlik) yoki qaror qabul qilish qonun bilan taqiqlanmagan bo'lsa. Ammo agar tadbirkor ijroiya hokimiyat organi bilan o'zaro munosabatlarga kirishsa (shariklik doirasida hamkorlik qilsa) va ushbu hokimiyat organi o'z harakatlarini (qarorlarini) tanlashi cheklanganligini hisobga olmasa, unda sheriklik tashkil etilmasligi mumkin yoki yanada yomoni ularning hamkorligi natijasida sheriklikdan rejalashtirilayotgan natijalar olinmaydi".

Ushbu ikkita boshqaruv sub'ekti o'zaro munosabatlari (hamkorligi) faqat huquq normalari asosida va ularni bajarishda yuz berishi mumkin, ya'ni tadbirkor ijro hokimiyati organining ko'p hollarda o'rnatilgan ko'rsatmalarni bajarishda amal qilinadigan "xulq-atvori" bayon qilingan normalarni hisobga olishga majbur bo'ladi.

"Hokimiyat organlari uchun bunday cheklovlar belgilanganligi tasodif emas. Adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, davlat xo'jalik faoliyati bilan chalg'ishi lozim emas, chunki bu uning ommaviy-huquqiy sohasiga umumiy qoidaga ko'ra ommaviy hokimiyat huquqiy tabiatiga begona bo'lgan daromadlilik prinsipini aralashtiradi. SHuning uchun ayrim ommaviy hokimiyat organlariga sheriklikda qaramog'idagi muassasalar, korxonalar, tashkilotlar orqali bivosita ishtirok etish huquqi taqdim etilgan. Bunday hollarda ular bir tomondan ularga yuklatilgan sohada asosiy davlat siyosatini amalga oshiradi, boshqa tomondan – sherikning xo'jalik faoliyatida ishtirok etish majburiyatini o'z zimmasiga olmasdan va ommaviy hokimiyat huquqiy tabiatini buzmasdan, yangi texnologiyalarni



rivojlantirish yoki joriy etish, yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish yoki mavjudlarini rekonstruksiya qilish va hakoza bo'yicha soha (tarmoq) uchun istalgan natijalarni olishi mumkin".

"Davlat-xususiy sherikchiligi amalga oshirishda qonunchilikni ro'yobga chiqarish shakllarining (*bajarish, qo'llash, rioya etish, foydalanish*) oqilona mos kelishi sheriklik maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan har xil turdagi ishlarni bajarish jarayonida doimo paydo bo'ladigan risklarni to'liq minimallashtirish imkoniga ega. Ammo bunda esdan chiqarmaslik lozimki, (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, texnogen va boshqa) vaziyat keskin o'zgarishi mumkin, shuning uchun ham qonunchilikni ro'yobga chiqarishning u yoki bu shakllaridan foydalanish nisbati variantlari ham o'zgarishi lozim. Buni qonunchilikni ro'yobga chiqarish shaklini tanlashda hisobga olish va ularni o'zgarayotgan vaziyatga qarab tezkor o'zgartirish zarur".

Tadqiqot natijalariga asoslab, quyidagi bir qator nazariy metodologik, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq xulosa va takliflarni bildirish mumkin.

"Qishloqda tovar ishlab chiqarish nafaqat davlat-xususiy sheriklik balki ijtimoiy sheriklik (davlat va nodavlat tashkilotlari sherikligi)ni ta'minlashga kompleks yondashuv zarur. Fuqarolik muomalasida davlat va xususiy manfaatlarning uyg'unlashuviga demokratik boshqaruv tizimining etuklik ko'rsatkichi bo'lmish huquqiy madaniyatni yuksaltirishda davlat hokimiyati organlari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlarida yuridik xizmat ko'rsatishning roli va ta'sirchanligini oshirish lozim. Qishloqda ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish nafaqat kasbiy bilimlarni balki odamlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida ommaviy va hususiy huquq sub'ektlarining fuqarolar va tadbirkorlar yuridik bilimlarini oshirishga qaratilgan tom ma'noda ta'sirchan mexanizmlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy sheriklikni hayotda qaror toptirishga erishishni taqozo etadi"

Boshqacha aytganda, qishloqda yuridik xizmatni ko'rsatishda huquqning tartibga soluvchi funksiyasi bilan bir qatorda ogohlantiruvchi, huquqbuzarliklarning oldini oluvchi, xavfsizlikni ta'minlovchi, rag'batlantiruvchi, huquqni mensimaslikning oldini oluvchi (huquqiy negilizm), tinchlik va barqarorlikni saqlovchi, qonuniylik va ijtimoiy adolatni qaror toptiruvchi, fuqarolik muomalasida qatnashuvchi tadbirkorlik sub'ektlarini huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi eng muhimi, uning bunyodkor kuch va davlat jamiyat shaxs hayot faoliyatining mustahkam himoyalovchi vazifasini bajarishini aslo unutmasligimiz lozim.

References:

1. Umurzakov O.P., Dusmuratov G.D. «Qishloq va suv xo'jaligida davlat-xususiy sherikchiligi». Darslik. – T: 2019. - 288 bet.
2. Djumaniyazov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy-uslubiy masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil, www.iqtisodiyot.uz. 12 bet.
3. Kochetkova S. A. Gosudarstvenno-chastnoe partnyorstvo : uchebnoe posobie. – M.: Izdatelskiy dom Akademii Estestvoznaniya, 2016. – 174 s.



4. Борщевский, G. A. Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo : uchebnik i praktikum dlya bakalavriata i magistratury / G. A. Борщевский. – 2-e izd., pererab i dop. – M.: Izdatelstvo YUrayt, 2018. – 412 s. – (Seriya: Bakalavr i magistr. Akademicheskiy kurs).
5. Utegenov Q.J. Qishloq xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklikning huquqiy normalarini amalga oshirish [Konferensiya] // bag'ishlangan professor-o'qituvchi va yosh olimlarning III - masofaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi Materiallari To'plami . - T : [b.n.], 2020, 21 may . - str. 1616-1620.
6. <http://www.pppda.uz> – O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi.
7. <https://stat.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari.
8. <http://www.4ps.co.uk> - Сайт Public Private Partnerships Programme, Великобритания.